



D.R. JO'RAYEVA

TEXNOLOGIYA TA'LIMI NAZARIYASI VA METODIKASI

Darslik

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

JO‘RAYEVA DILNOZ RAXMIDINOVNA

**TEXNOLOGIYA TA‘LIMI
NAZARIYASI VA
METODIKASI**

60110400 – Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi talabalari uchun darslik

**BUXORO-2026
“BUKHARA HAMD PRINT” nashriyoti**

JO'RAYEVA DILNOZ RAXMIDINOVNA

TEKNOLOGIYA TA'LIMI NAZARIYASI VA METODIKASI

60110400 – Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalari uchun darslik

<i>Muharrir:</i>	<i>F.Usmonov</i>
<i>Texnik muharrir:</i>	<i>B.Ashurov</i>
<i>Musahhih:</i>	<i>M.Kuziyeva</i>
<i>Sahifalovchi:</i>	<i>X.Axrоров</i>

Nashriyot litsenziyasi №040075. 23.09.2022. Original maketidan bosishga ruxsat etildi: 25.02.2026. Bichimi 60x84. Kegli 16 shponli. "Times New Roman" gam. Ofset bosma usulida bosildi. Ofset bosma qog'ozi. Bosma tobog'i 39,5. Adadi 100. Buyurtma № 803.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi "**BUKHARA HAMD PRINT**" nashriyoti. Buxoro shahri Hofiz Tanish Buxoriy ko'chasi, 190-B uy. Tel: (97) 736-20-11. Bahosi kelishilgan narxda.



"**BUKHARA HAMD PRINT**" MChJ bosmaxonasida chop etildi.
Buxoro shahri Qayum Murtazoyev ko'chasi, 344-uy

UO‘K: 74.263ya73

KBK: 74.263

J 42

JO‘RAYEVA DILNOZ RAXMIDINOVNA

TEXNOLOGIYA TA‘LIMI NAZARIYASI VA METODIKASI

[matn] darslik, JO‘RAYEVA DILNOZ RAXMIDINOVNA, BUXORO-2026, “BUKHARA HAMD PRINT” nashriyoti, 632 b.

Ushbu darslik “Texnologiya ta’limi nazariyasi va metodikasi” darsligi aynan boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun 60110400-boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun bo‘lib, unda mustaqil ta’lim, o‘quv adabiyotlaridan foydalanish imkoniyatlari, texnologiya ta’limi nazariyasi va metodikasi fanining predmeti, maqsad va vazifalari, tamoyillari, texnologiya fanini o‘qitish jarayonida qo‘llash mumkin bo‘lgan turli o‘qitish metodlari, interfaol o‘qitish metodikasi predmeti, instruksion texnologik xaritalar milliy dastur, texnologiya fani darsliklari asosida yoritib berilgan. Qolaversa, har bir mavzu asosida ijodiy topshiriq, test, muammoli savol, instruksion texnologik xaritalar ishlab chiqilgan.

Taqrizchilar:

Dilova N.G., Buxoro davlat universiteti bosh ilmiy kotibi Pedagogika fanlari doktori professor

Qosimov F.M., Buxoro davlat pedagogika instituti boshlang‘ich ta’lim kafedrası, professori

Darslik, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2026-yil 9-fevraldagi № 1223-5869-8967-24c7-2851-5878-4702 -sonli buyrug‘iga asosan nashrga etishga tavsiya etilgan.

ISBN: 978-6206-800-79-8

KIRISH

“Yangi O'zbekistonni barpo etish uchun har bir soha, har bir mutaxassis texnologik savodxon bo'lishi, zamonaviy texnik vositalardan foydalanishni bilishi shart.”¹ — Shavkat Mirziyoyev, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

Zamonaviy ta'lim tizimida texnologik bilim va amaliy ko'nikmalarning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Yangi pedagogik yondashuvlar, raqamli texnologiyalar, integratsiyalashgan metodikalar, STEAM ta'limi kabi yo'nalishlarning kirib kelishi bilan texnologiya fanining mazmuni va mohiyati sezilarli darajada boyidi. Shu bois, maktabda texnologiya ta'limining ilmiy-nazariy asoslarini puxta bilgan va amaliyotda to'g'ri qo'llay oladigan o'qituvchi shaxsini shakllantirish dolzarb masalaga aylandi.

Mazkur darslik **“Texnologiya ta'limi nazariyasi va metodikasi”** yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar, amaliyotchi o'qituvchilar, shuningdek, ilmiy izlanuvchilar uchun mo'ljallangan bo'lib, quyidagi yo'nalishlarda zarur bilim va ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi:

- texnologiya ta'limining zamonaviy konsepsiyasi va asosiy yo'nalishlari;
- boshlang'ich va umumiy o'rta ta'limda texnologiya fanining o'rni;
- o'qitish metodlari, shakllari va vositalari;
- amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishning bosqichlari;
- o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos metodik yondashuvlar;
- innovatsion texnologiyalar va integratsiyalashgan ta'lim metodlari;
- texnologiya fanining boshqa fanlar bilan uzviy bog'liqligi.

Darslikda texnologiya ta'limiga oid ilg'or xorijiy va mahalliy tajribalar, Prezident qarorlarida belgilangan ustuvor yo'nalishlar, yangi davr pedagogikasiga xos metodik yondashuvlar tahlil qilingan. Ayniqsa, o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish, amaliy faoliyatga qiziqishini oshirish, mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Shuningdek, ushbu darslik texnologiya fani o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini mustahkamlash, o'z-o'zini rivojlantirishga undash va o'zbek maktablarida yuqori sifatli texnologik ta'limni tashkil etishga xizmat qiladi.

¹ 1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent – “O'zbekiston” – 2016. 56B.

Hozirgi zamon ta'limida texnologik tafakkurni rivojlantirish, o'quvchilarning mehnatga munosabatini shakllantirish, ularni ijodiy faoliyatga yo'naltirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, texnologiya ta'limi – nafaqat o'quvchilarda mehnat ko'nikmalarini hosil qilish, balki ularni har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiluvchi fan sifatida qaralmoqda.

Mazkur darslik texnologiya ta'limining nazariy asoslari, o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos metodik yondashuvlar, dars turlari, amaliy mashg'ulotlarni tashkil qilish usullari, ta'lim vositalari, shuningdek, STEAM ta'limi, innovatsion texnologiyalar va zamonaviy yondashuvlar haqida to'liq tushuncha beradi.

Darslik pedagogika oliygohlari talabalari, amaliyotchi o'qituvchilar hamda ilmiy izlanuvchilar uchun mo'ljallangan bo'lib, unda metodik tavsiyalar, mashg'ulot namunasi, testlar, amaliy topshiriqlar va zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan ishlashga oid tavsiyalar jamlangan.

Asosiy maqsad – texnologiya fanini o'qitishda o'qituvchining kasbiy tayyorgarligini oshirish, amaliy mashg'ulotlarni samarali tashkil etish, ijodiy yondashuvni shakllantirish hamda o'quvchilarning hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan bilimlar berishdir.

Zamonaviy ta'lim jarayonida texnologiya fanining o'rni tobora ortib bormoqda. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, innovatsion faoliyatning kengayishi, ishlab chiqarish texnologiyalarining yangilanishi ta'lim tizimidan ham zamon talablariga moslashishni talab qiladi. Shu munosabat bilan, umumiy o'rta ta'lim maktablarida texnologiya fanini o'qitish bo'yicha ilmiy-nazariy va metodik asoslarni chuqur o'rganish zarurati ortib bormoqda.

Ushbu darslik texnologiya ta'limining mazmuni, maqsadi, vazifalari hamda o'qitish metodlari, shakllari va vositalarini tizimli tarzda yoritishga xizmat qiladi. Darslikda texnologik ta'limning psixologik-pedagogik asoslari, o'quvchilarning qiziqishlari va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda, ta'limni tashkil etish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Mazkur darslik oliy pedagogik ta'lim muassasalari talabalari, texnologiya fani o'qituvchilari, metodistlar hamda texnologik ta'lim bilan bog'liq sohalarda faoliyat yuritayotgan mutaxassislar uchun mo'ljallangan. Darslik nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga ham xizmat qiladi.

Shartli belgilar quyidagi jadvalda ko'rsatilgan, ularning ma'nolari bilan tanishib chiqishni tavsiya qilamiz.



Yangi mavzu



Reja



Maqsad



*Tayanch
so'zlar*



*Yodda
saqlang!*



Adabiyot



*Elektron
saytlar*



*Veb-kvestli
material*



Topshiriqlar



Test



Mustaqil ish



Glossary



Savollar



*Xorij
tajribasi*



Xulosa

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
1-Mavzu. Texnologiya ta'limi va tarbiyasining maqsad va vazifalari.	7
2-Mavzu. Texnologiya o'qitish metodikasi fanining nazariy va amaliy asoslari	46
3-Mavzu. Boshlang'ich sinflarda texnologiya ta'limining mazmuni	60
4-Mavzu. Texnologiya ta'limi va texnologik vositalar.	81
5-Mavzu. Texnologiya fani darslariga integratsion yondashuv.	107
6-Mavzu. Mutafakkirlar merosida mehnat tarbiyasi.	124
7 - Mavzu. Boshlang'ich ta'limda mehnat tarbiyasi va kasb-hunar turlari.	141
8-Mavzu. Mehnat tarbiyasida xalq og'zaki ijodining o'rni.	174
9-Mavzu. Texnologiya darslarida xorijiy ta'lim tizimidan foydalanish.	185
10-Mavzu. Boshlang'ich sinflarda texnologiya ta'limidan amaliy ishlar..	207
11-Mavzu. Texnologiya darslarida axborot texnologiyalaridan foydalanish.	240
12-Mavzu. Texnologiya darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish.	268
13-Mavzu. Texnologiya darslarida STEAM ta'limi.	290
14 - Mavzu. Ip turlarining amaliy darslarni tashkil etish metodikasi.	309
15 - Mavzu. Applikatsiya va mozaika turlari bilan ishlash darslarini tashkil etish metodikasi.	347
16-Mavzu. Qog'oz va karton bilan ishlash darslarining mazmunini tashkil etish metodikasi. Origami.	416
17- Mavzu. Turli xil materiallar bilan ishlash darslarini tashkil etish metodikasi.	476
18-Mavzu: Tabiiy materiallar bilan ishlash darslarini tashkil etish metodikasi	520

19 - Mavzu. Lego konstruksiyadan amaliy darslarni tashkil etish metodikasi.....	585
20 - Mavzu. Robototexnika asoslari.....	605